

O'ZBEKISTON ILMIY TEXNIKA VA TIBBIYOT HUJJATLARI MILLIY ARXIVI ILMIY
AXBOROT APPARATI BO'LIMI FAOLIYATI

Buriyeva Dilnoza

UzMU magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston Ilmiy Texnika va Tibbiyot hujjatlari Milliy arxivini ilmiy axborot apparati bo'limi va ularning hozirgi kundagi faoliyati haqidagi ma'lumotlar aks etgan.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье содержится информация хранящихся о современной деятельности Национального архива научно-технических и медицинских документов Узбекистана.*

Annotation: *This article contains scientific information of the department National Archive of Scientific Techniques and Medical Documents of Uzbekistan, and their current activities.*

Kalit so'zlar: *Arxiv, Fond, ma'lumotnoma apparati, elektron nusxa, yig'ma jild, hujjat, tibbiyot hujjatlari, saqlash.*

Ключевые слова: *Фонд, справочный аппарат, электронная копия, складной, путеводитель, медицинские документы, описание, судебно-медицинская экспертиза*

Keywords: *Fund, reference apparatus, electronic copy, folding volume, medical papers, inventory, forensic examination.*

Arxiv-arxiv hujjatlari majmui, shuningdek, arxiv muassasasi yoki korxon, muassasa tashkilotlarining arxiv hujjatlarini qabul qiluvchi, saqlovchi va ulardan foydalanuvchi tarkibiy tuzulma bo'lib, 1999 yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisidan "Arxivlar to'g'risida"gi qonun qabul qilinishi munosabati Respublika arxiv ishida anchagina o'zgarishlar sodir bo'ldi. Davlat arxivlari faoliyatida yutuqlar ham qo'lga kiritildi.

Arxivlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 3-moddasida atroflicha o'z ifodasini topgan.⁹⁵ Xususan, arxiv hujjatlari deganda- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tegishli ekspertiza asosida arxiv ahamiyatiga molik deb topilgan matnli, qo'lyozma va mashinada o'qiladigan hujjatlar, ovozli yozuvlar, videoyozuvlar, kinolentalar, fotosuratlar, fotografiya plyonkalari, chizmalar, sxemalar, xaritalar, shuningdek, turli moddiy ashyolardagi yozuvlar tushuniladi.

Arxiv fondi deganda -tarixiy yoki mantiqiy jihatdan bir-biri bilan aloqador arxiv hujjatlari majmuini anglatishi, arxiv ishi esa - arxiv hujjatlarini qabul qilish, hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanishni tashkil etishga oid faoliyat ekanligi, arxiv hujjatlarini doimiy saqlash deganda - ularni arxivda, muzeyda, kutubxonada cheklanmagan muddatlarda saqlash hamda arxiv hujjatlarini vaqtincha saqlash esa -

⁹⁵ O'zbekiston Respublikasi Qonuni 15.04.1999 yildagi 768-1 son

ularni arxivlarda qonun hujjatlarida belgilangan davr mobaynida saqlash kabi tushunchalar yoritilgan⁹⁶.

Ilmiy axborot apparati bo'limi

So'nggi yillarda Ilmiy Texnika va Tibbiyot hujjatlari milliy arxivida ham ko'plab sohada yutuqlarga erishildi. Arxiv faoliyatida bo'limlar ham o'z moddiy texnik bazasini doimiy takomillashtirish bo'yicha bir qancha chora tadbirlarni amalga oshirdi.

Arxivda ilmiy axborot apparati bo'limi ham funksional vazifalaridan biri hujjatlardan foydalanish va ilmiy-tadqiqot yo'nalishini rivojlantirish maqsadida faol ishlar amalga oshirilmoqda. Hujjatlarni nafaqat saqlash balki ularni tadqiq qilish, tarixni yoritishda muhim ilmiy asos sifatida muomilaga kiritish ustida ish olib borilmoqda. So'ngi yillarda arxivda ilmiy-tadqiqot ishlari fuqarolarning murojaatlarining ko'payishi natijasida orqada qolayotgan yo'nalishlardan biri edi. Arxiv xodimlari tomonidan arxivda saqlanayotgan hujjatlarni tadqiq qilish, tarix uchun yangi ma'lumotlar qayd qilingan arxiv hujjatlarini aniqlash ustida ish olib bordilar. Tadqiqotlar natijasida fondlar tarkibida qishloq xo'jaligi, arxitektura, sog'liqni saqlash sohalari, shuningdek Ikkinchi Jahon urushi yillarida O'zbekistonga evakuatsiya qilingan aholi, jumladan bolalar xususida qimmatli arxiv hujjatlari aniqlanib, yangi aniqlangan mazkur hujjatlar asosida ilmiy maqolalar chop etildi. Shuningdek bo'lim tomonidan ko'rsatilayotgan asosiy 3 ta xizmat onlayn formatga o'tkazilib, masofadan xizmat ko'rsatishga erishilgan. Bo'lim mutaxassislari tomonidan xalqaro va Respublika konferensiyalarida arxivda saqlanayotgan hujjatlar asosida yozilgan ilmiy maqolalar bilan qatnashish rivojlandi. O'zbekiston Milliy kutubxonasi tomonidan har yili an'anaviy tarzda o'tkaziladigan "Central Asia" xalqaro konferensiyaga doimiy ishtirok etib kelmoqdalar. 1965-2002 yillar davomida 55 ta tashabbusli axborot, 1540 ta ijtimoiy xuquqiy mazmundagi so'rovlar, 235 ta mavzuli so'rovlar, 65 ta ko'rgazmalar, 73 radioeshitirishlar, 7 ta teleko'rsatuv, 77 ta maqolalar tayyorlangan va 400 nafar tadqiqotchilarga xizmat ko'rsatgan.⁹⁷

Mustaqillikning so'ngi yillarida arxiv hujjatlaridan foydalanish va hujjatlarni ilmiy muomilaga kiritish, tadqiqotchilarni arxiv hujjatlarini foydalanishga keng jalb qilish maqsadida bir qator amaliy ishlar amalga oshirildi. Quyida bo'lim tomonidan amalga oshirilgan ishlar to'g'risida statistik ma'lumotlar berilmoqda;

Jumladan 2004 yilda fuqarolardan va tashkilotlardan kelgan 313 ta ijtimoiy-huquqiy mazmundagi so'rovlar ijrosi ta'minlangan bo'lsa 2021 yil 38016 ta bu turdagi so'rovlar ijrosi ta'minlangan. 2004 yilda 6 ta tadqiqotchiga xizmat ko'ratilgan bo'lsa 2021 yilda 48 ta tadqiqotchi arxiv hujjatlaridan foydalangan.⁹⁸

2010-2021 yillar davomida 124 ta tashabbusli axborot, 457 ta mavzuli so'rovlar bajarilgan, 95613 ta ijtimoiy-huquqiy mazmundagi so'rovlar ijrosi ta'minlangan, 197 ta arxiv hujjatlari asosida ko'rgazmalar tashkil etilgan, 165 ta radioeshitirish, 77 ta

⁹⁶ O'RQ -252- son 15.06.2010 Arxivlar ishi to'g'risidagi qonun

⁹⁷ O'zbekiston Ilmiy texnika va tibbiyot hujjatlari arxivi ma'lumotnoma apparati

⁹⁸ Hujjatlardan foydalanish va ilmiy axborot bo'limi hisobotidan

teleko'rsatuvlar tayyorlangan, 148 ta maqola chop etilgan, 239 ta arxiv bo'ylab qiziqarli ekskursiya uyushtirilgan xamda 281 ta tadqiqotchilarga arxiv xizmatlari ko'rsatilgan.⁹⁹

Hujjatlarni e'lon qilish va arxiv faoliyati ochiqligini ta'minlash maqsadida poytaxtimizda faoliyat olib borayotgan "Navro'z FM" va "Mahalla" radiokanali bilan muntazam hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Shu yillar davomida radio va telekanallar bilan hamkorlikda arxiv hujjatlari va faoliyati to'g'risida, shuningdek sohada olib borilayotgan isloxotlar keng yoritib borildi. SHuningdek turli davriy nashlar va ilmiy jurnallarda maqolalar nashr qilish sifatiga alohida e'tibor berilib, rivojlantirildi. Ushbu faoliyatlarning natijasida birgina 2021 yil davomida arxivga 48 ta tadqiqotchi tashrif buyurib arxiv hujjatlaridan foydalandi (o'tgan yillarga nisbatan 3-4 barovarga o'sish sur'atiga erishildi). Shu bilan birga bu yil arxivda ilmiy faoliyatni rivojlantirish, qishloq xo'jaligi sohasini tarixini o'rganish maqsadida arxivda saqlanayotgan shu yo'nalishdagi fondlarni tahlil qilish maqsadida 2021 yil davomida "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi sohasining rivojlanishi arxiv hujjatlarida" nomli ilmiy ish ustida faoliyat olib borildi. Arxivda qishloq xo'jaligi sohasi tarixiga oid hujjatlar saqlanayotgan fondlar ajratilib, tahlil qilindi va ro'yxatlari shakllantirildi. Bu yo'nalishda 5 ta ilmiy maqola nashr qilingan. 2022 yilda arxivda saqlanayotgan sog'liqni saqlash sohasiga oid hujjatlar asosida ilmiy ish ustida ish olib borilib, O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasining holati arxivda saqlanyotgan hujjatlar asosida tadqiq qilish rejalashtirilmoqda.

Bo'lim xodimlari va ilmiy xodimlar tomonidan 2012-2021 yillarda turli tashkilotlarda tashkil etilgan xalqaro konferensiyalarda arxivning ilmiy xodimlari va mas'ul xodimlari tomonidan 40 dan ortiq ilmiy maqola to'plamlarda nashr qilindi. Chet el ilmiy jurnallarida arxiv yo'nalishi istiqbollari va olib borilayotgan ishlar, hamda takliflarni o'z ichiga olgan 12 ta maqola (9 ta Rossiya, 2 ta Evropa va 1 ta Hindiston) chop etildi. 22 ta konferensiyada arxiv xodimlari ma'ruzalar bilan ishtirok etishdi.

O'zbekistonda arxiv ishi va uning xuquqiy asoslari tarixi.

Tarixni bilmoq, uni o'rganmoq uzini shu yurtning farzandi deb bilgan, Vatan gururini ko'ksida his etgan xar bir inson uchun muximdir. Zero, tarixni bilmay turib yurtimizning buguni va kelajagi haqida qayg'urmoq o'rinsizdir. Mana shu tarixni uzining oltinga teng qalblariga jo etgan hujjatlar arxiv deb atalmish maskanlar bag'rida saqlanmoqda. Yurtimizda birinchi arxiv bundan qariyb yuz yil muqaddam, aniqrog'i 1919 yili tashkil etilgan bulib, 90 yil mobaynida uning soni yuzdan oshib ketdi. Hozirgi kunga kelib O'zbekistonda 3 ta Markaziy davlat arxivlari, 80 dan ziyod davlat arxivlari faoliyat yuritib kelmoqda. Ularning har biri uzining bebaho hujjatlariga ega bo'lgani barobarida O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi o'z hujjatlarining hajmi va tarixiyliigi bilan ular ichida alohida o'rin egallaydi.¹⁰⁰ Arxivning oltin fondida saqlanayotgan Buxoro Amirligi, Xiva, Qo'qon xonligi va O'zbekistonda xizmat

⁹⁹ O'zbekiston Ilmiy Texnika va Tibbiyot hujjatlari arxivi hisobotidan

¹⁰⁰ Markaziy Davlat arxiv fondi

ko'rsatkan ixtirochi Boris Pavlovich Grabovskiy va bir qator ilm dargohining jonkuyarlari hujjatlarini uzida jamlagan fondlar arxiv nufuzini yanada ko'taradi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivining 20 ta hujjat saqlov xonalarida bir million olti yuz mingdan ortiq qimmatbaxo manbalar saqlanmoqda. Xususan, tarixga bir nazar tashlaydigan bo'lsak, sovetlarning xokimiyat tepasiga kelishiga sababchi bo'lgan oktabr inqilobining birinchi kunlaridayoq xalqimizning ijtimoiy xayotida totalitar boshqaruv mexanizmi, buyruq berish usuli o'rnatilgan edi. Bunday nazorat xalqimizning diniy hayotida, shuningdek, tarix fani va vatanimiz arxivshunosligi ustidan xam o'rnatilgan edi. Natijada, tarix fani va arxivshunoslik - siyosiy fanlar bo'lib qoldi. Ilmiy tadqiqotlar va arxivshunoslik sovetlar xukmron sinfining g'oyaviy tanqidlariga uchrab, ilmiy-izlanish imkoniyatlari xam cheklab qo'yildi va "xalqimizning haqiqiy tarixi, oktyabr inqilobi g'alabasidan so'ng boshlandi", deb ta'kidlandi. Inqilobgacha mavjud bo'lgan adabiyotlar, san'at, tarixiy tadqiqotlar xukmron g'oyalar bilan sug'orilgan, ulardagi asriy milliy qadriyatlar va urf-odatlar davlat taraqqiyoti uchun zid deb, ta'kidlandi va ularni yuqotishga harakat qilindi. O'z-o'zidan sovet madaniy siyosatining og'riqli kasalliklari ulkadagi arxiv ishiga xam ta'sir qildi. Ammo shuni aytishimiz lozimki, usha davrda tashkiliy rejalashtirishda maqtoqli ishlar amalga oshirildi. Oktabr inqilobidan so'ng vujudga kelgan totalitar tuzum, markaziy boshqaruv va g'oyalar asosida ko'rilgan.

Xulosa sifatida ta'kidlash lozimki O'zbekistonda arxiv ishini boshqarishda huquqiy asoslarini takomillashtirish aniq mehanizmlarini ishlab chiqarish muhim jarayon sanaladi. Bu jarayonda arxiv huquqi va arxiv sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarining o'rni beqiyosdir. Sohaning rivoji aniq dasturiy vazifa va ko'rsatmalarga asosan amalga oshirilganligi xususan arxiv huquqiy atama va tushunchalarni to'la ochib berilishi, Arxivning fan sifatida shakllanishi, " Arxiv huquqi" kabi tushunchalarni o'z ichiga olib albatta bunda ilmiy ma'lumotnoma apparati faoliyati ham inobatga olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Arxivlar to'g'risidagi qonun- 15. 04. 1999 yil 768 1-sonli qarori
2. Alimov I A., Ergashev F., Bo'tayev A. Arxivshunoslik. O'quv qollanma -T.: Sharq, 1997
3. Alimov I.A. . O'quv qo'llanma Andijon 2005.
4. O'zbekiston Respublikasi Qonuni 15.04.1999 yildagi 768-1 son
5. O'RQ -252- son 15.06.2010 Arxivlar ishi to'g'risidagi qonun
6. Государственные архивы СССР. Справочник в 2-х частях.-М.: Мысль, 1989. Часть 2.
7. Isakova M., Ioev B. Arxivshunoslik. O'quv qo'llanma -T.Cho'lpon, 2007.
8. Митяев К.Г. Теория и практика архивного дела. Учебное пособие-М.: 1946.
9. www.archiv.ru
10. www.history.ru